ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

MAKTAB TA'LIMINI MAQSADLI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI

Temurjon Kalandarovich Komilov
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institute mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha va maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish modellari keltirilgan, bundan tashqari ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari ham yoritilgan.

Аннотация: В данной научной статье представлены модели совершенствования механизмов целевого финансирования дошкольного и школьного образования, а также освещены методы эффективной организации образовательного процесса.

Annotation: This scientific article presents models for improving targeted financing mechanisms for preschool and school education, while also highlighting methods for effectively organizing the educational process.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishda moliyalashtirish muhim rol o'ynaydi. Shu bois, umumta'lim maktablari qanday moliyalashtiriladi, faoliyati uchun qancha mablag' ajratiladi, mablag'lar qaerdan keladi va qanday sarflanadi kabi savollar katta ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga, buning o'ziga yarasha qiyinchiligi mavjuddir. Ya'ni, moliyalashtirish va xarajatlar bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ish, tarqatish va tahlil qilish tizimi yetarlicha rivojlanmagan yoki har bir davlatda o'ziga xos xususiyatga ega. Odatda, ta'limni moliyalashtirish va xarajatlari mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotlari (YaIM) yoki hukumatlarning yillik xarajatlardagi ulushi bilan o'lchanadi. Bu muhim bo'lish bilan birga, barcha asoslarni ochib bera olmaydi. Masalan, ko'pgina davlatlarda uy xo'jaliklarining ta'lim uchun xarajatlari hisobga olinmaydi. Vaholanki, bu xarajatlar ta'lim faoliyati uchun va ta'limni rivojlanishida katta rol o'ynashi mumkin. Misol uchun bir oilaning ikki farzandi maktabda ta'lim olmoqda, ushbu oila ikki farzandining ta'limi uchun o'z daromadlarining qanchasini sarflaydi, ta'limning qaysi bosqichida (maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy) ko'proq xarajat qiladi kabi savollarga javob topish aslini olganda juda kerakli va muhimdir. Bu nega ba'zi oilalarning farzandlari ta'limda faol va yaxshi ko'rsatkichga ega ekanligini tushuntiradi shuningdek, oilalarning farzandlari ta'limi uchun kiritayotgan investitsiyalarning kelajakdagi iqtisodiy daromadlarining darajasini belgilab berish nuqtai nazardan ham ahamiyatlidir.[1]

Albatta, dunyodagi barcha davlatlar ta'lim xarajatlarining aksariyat qismini budjetdan amalga oshiradi. Bu xalqaro shartnomalar va milliy konstitutsiyalarda aks ettirilgan. Buning sababi global va milliy darajada savodxonlikni oshirish, shaxslarning o'z daromad manbalarini yaratish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga qaratilgandir. Odatda, ma'lumoti yuqori shaxslar ijtimoiy totuvlik, qonunlarga amal qilish, ekologik tozalik va sog'liqni saqlash masalalarida faol bo'lishadi. Bu shaxs, jamiyat va davlat uchun birdek yuqori ahamiyatlidir. Shu bois, davlatlar ta'limni ommalashtirish, moliyalashtirishni o'z zimmasiga olish bilan birga, fuqarolar uchun ta'lim majburiyatlarini ham yuklaydi.

[1] Hai-Anh H. Dang, F. Halsey Rogers, The Decision to Invest in Child Quality over Quantity: Household Size and Household Investment in Education in Vietnam, The World Bank Economic Review, Volume 30, Issue 1, 2016, Pages 104-142, https://doi.org/10.1093/wber/lhv048

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Shunday bo‘lsada, ko‘plab davlatlar va xalqaro tashkilotlarda ta’limni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ishlari olib borilgan. Shulardan biri YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan Milliy ta’lim hisoblari (The National Education Accounts, qisqacha NEA) metodologiyasi hisoblanadi.

NEA metodologiyasi sun’iy yo‘ldosh hisoblari tamoyillariga (principles of satellite accounts) asoslanadi. NEA bu – ta’lim moliyasiga oid ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha keng qamrovli mexanizmdir. U maktabgacha ta’limdan tortib to oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha ta’lim darajalarini, shu jumladan kasbiy ta’limni qamrab oladi. U barcha moliyalashtirish manbalarini (barcha darajadagi hukumat, hususiy va tashqi manbalar) va davlat yoki hususiy ta’lim beruvchilarning barcha turlarini o‘z ichiga oladi.[2]

NEA ta’limni moliyalashtirish oqimlarini tahlil qilish uchun mantiqiy va tizimli asosni taqdim etadi: IIEP-UIS[3] metodologiyasi moliyalashtirish bo‘limlaridan (ta’limni moliyalashtiradigan), shuningdek ishlab chiqaruvchi birliklardan (ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchilar) ma’lumotlarni to‘playdi. Keyin ma’lumotlar ta’lim darajasi, faoliyat va iqtisodiy operatsiyalarning umumiy tasniflari yordamida qayta ishlanadi, shuning uchun ularni moliyalashtirish va ishlab chiqarish birliklari istiqbollarini moslashtiruvchi yagona tizim ostida birlashtirish mumkin.

Ta’lim tizimining o‘zgaruvchan ustuvorliklari moliyalashtirish tizimlarining rivojlanish yo‘lini ham shakllantirdi. Bugungi kunda davlatlarning ta’limni moliyalashtirishdagi o‘ziga xosligi shu bilan asoslanadi. Ya’ni, ta’lim islohotlari, ta’lim dasturlari va ta’lim tizimida nimaga ko‘proq ahamiyat qaratish maqsadlaridan kelib chiqib moliyalashtirishdir.

Ko‘p jihati bilan bir biriga yaqin Yevropa Ittifoqi davlatlari ham ta’limni moliyalashtirishda ustuvorliklari, moliyalashtirish mexanizmlari jihatidan quyidagi farqlar va o‘ziga xosliklarga ega ekanlishini ko‘rishimiz mumkin:[4]

1) boshqaruv: markaziy/mahalliy va/yoki hududiy
2) moliyalashtirish: formula, byujetni tasdiqlash/ixtiyoriy belgilash
3) resurslarni taqsimlash: kirish/chiqish mezonlari

O‘zbekistonda umumta’lim maktablarini moliyalashtirishda aralash usuldan foydalanishini ko‘rishimiz mumkin:

a) maktab direktorlari, o‘rinbosarlari va o‘qituvchilar ish haqi uchun ta’riflarga asoslangan aniq formula usuli;

b) moliyaviy yil uchun yuqori turuvchi ta’lim organlarining yillik budjetlarini ishlab chiqish tasdiqlash usuli;

c) umumta’lim maktablarining budjetdan tashqari mablag‘larini ma’lum qismini ixtiyoriy sarflash usuli.

Shuningdek, moliyalashtirish mezonlari o‘quvchi soniga va o‘qituvchilarga to‘lanadigan tabaqalashtirilgan ish haqi inobatga olinadi. Shu bilan birga, qo‘shimcha moliyalashtirish (ta’mirlash va yillik kapital ta’mirlash, o‘quv-materiallari) va maqsadli moliyalashtirish (chekka hududdagi va qoloq maktablarga malakali o‘qituvchilarni jalb qilish) mezonlari mavjud. Shunday bo‘lsa-da, maktablarning individual xususiyatlari va haqiqiy ehtiyojlarini hisobga oladigan va real xarajatlarga asoslangan moliyalashtirish mexanizmini yo‘lga qo‘yish kerak bo‘lmoqda.

---

[2] UNESCO, 2016, юқоридаги манба, 2-бет.
[3] UNESCO Institute for Statistics (UIS) – UNESCO International Institute for Educational Planning (IIEP)
[4] European Commission/EACEA/Eurydice. Financing Schools in Europe: Mechanisms, Methods and Criteria in Public Funding. Eurydice Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2014.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Xulosa

umumta'lim maktablarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagi omillarga ahamiyat qaratish lozim:

- moliyaviy manbalar qaerdan va qancha miqdorda kelmoqda. Bunda davlat va xususiy manbalar to'liq o'rganilishi kerak;
- ta'lim moliyaviy manbasining barqarorligini ta'minlash uchun soliq yukini aniqlashtirish lozim;
- moliyalashtirishda ishtirok etuvchi markaziy/yuqori turuvchi, hudud-iy va mahalliy tashkilotlarning o'rni va rolini aniqlashtirish;
- moliyalashtirishda qaysi mexanizm/usuldan foydalanmoqda: formu-lali, budjetni tasdiqlash, ixtiyoriy;
- moliyalashtirishda ta'lim ustuvorliklarini aniqlash: ya'ni resurs-larni taqsimlashda nimalarga va qaysi mezonlarga ahamiyat qaratiladi;
- maqsadli moliyalashtirishda ta'limga ta'sir qiluvchi omillarga ahamiyat qaratish va boshqalar.

Mazkur jihatlar maktablarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtiradi va moliyaviy manbalar haqida hamda ularning aylanishi haqida to'liqroq va shaffof ma'lumotlar beradi. Ta'limdagi moliyaviy harakatlarning ochiq va shaffofligi hamda tizimlashganligi ta'lim jarayonini sifat va son jihatdan yaxshilanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son. Toshkent, 2020 yil 23 sentabr.

2. Belexova G.V., Kalachikova O.N. «Vek jivi – vek uchis»: konseptualnыy diskurs o finansovoy gramotnosti naseleniya. Ekonomicheskie i sotsialnые peremenы: faktы, tendensii, prognoz. Tom 11, № 6, 2018.

3. Hai-Anh H. Dang, F. Halsey Rogers, The Decision to Invest in Child Quality over Quantity: Household Size and Household Investment in Education in Vietnam, The World Bank Economic Review, Volume 30, Issue 1, 2016, Pages 104-142, https://doi.org/10.1093/wber/lhv048

[4]. UNESCO 2016, 2-бет.

[5]. UNESCO Institute for Statistics (UIS) – UNESCO International Institute for Educational Planning (IIEP)